

O‘ZBEKCHA MAQOL VA MATALLARNING NEMIS TILIDAGI MUQOBIL VARIANTLARGA MOSLIGI

Majidov Farohiddin Nasriddin o‘g‘li

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

farohiddinmajidov21@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada maqol va matallar har bir xalqning donishmandligi, tarixiy tajribasi va milliy mentalitetini ifodalovchi muhim til birligi sifatida ta’kidlangan. Bular dan tashqari, maqol va matallar nafaqat nutqni jonlantirishga, balki xalqning ma’naviyati va dunyoqarashini aks ettirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu maqolada o‘zbek maqol va matallarining nemis tilidagi muqobil variantlari tahlil qilinadi hamda ular ning semantik va stilistik jihatdan mosligi ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Maqol, matal, tendsiya, flektiv, agglyutinatsiya, paremiologiya, frazeologik birlik, tendensiya.*

Maqol deganda biz xulq-atvorimiz yoki ma’lum bir xatti-harakatimiz haqidagi tushunchani ifodalovchi qat’iy belgilangan jummalarni tushunamiz. Bundan farqli ravishda, maqollar turg’un xususiyatga ega emas; ularning tendensiyasi har qanday tarzda ishlatilishi mumkin. Ularning og’zaki ifodalanishining ochiq shakli shuni anglatadiki, maqollar ham qat’iy mazmunga ega bo’lishi mumkin va albatta, hech qanday ta’limot yoki axloqiy tendensiyaga bog‘liq emas. Ular hikmatni ifodalab, to’liq holatda ma’no ifodalaydi. Nemis og’zaki diskursida ishlatiladigan frazeologik va paremiologik birliklar hayotiy – maishiy vaziyatlarning barchasini ta’riflab berishga qodir [Yaxshiyev, 2021]. Maqollar yakunlangandan keyingina alohida mazmunni ifodalaydi. [Röhrich, 1994].

Nemis va o'zbek tillari bir-biriga qardosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Shunday ekan, bu ikki til kontekstida tarjima qilishda doimo ba’zi qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki o‘zbek tili agglyutinativ til bo’lsa, nemis tili esa flektiv tillar guruhiga mansubdir. Shuning uchun bu tillar bir-biridan lingvistik qoidalar, lug’at fondi materiallari, til birliklari va tilni amalga oshirish darajasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shular qatori bu tillarda mavjud bo’lgan paremiologik birliklar ham kiradi. Bu har qanday tarjimon duch keladigan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Har ikkala tilda ham mavjud bo’lgan paremiologik birliklar turli usullarda tizimlashtirilgan. Masalan:

1. Alfavit tartibda to’plangan paremiologik birliklar. Bunday turdagi adabiyotlarga o‘zbek tilida quyidagi manbalarni misol qilishimiz mumkin. “O‘zbek xalq paremalarining

sinonimik lug‘ati” – Muallif: Bibish Jo‘rayeva yoki “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” – Mualliflar: X. Berdiyev va R. Rasulovlar. Nemis tilida esa bunday kitoblarga : “Deutsches Sprichwörter-Lexikon” – Muallif: Karl Friedrich Wilhelm Wander, “Sprichwörterbuch” – Muallif: Lutz Röhrichning lug‘atlarini kirgizishimiz mumkin. Yuqoridagi manbada aynan paremiologik birliklar alfavit tartibda kitobxonlarga taqdim qilingan.

2. Mavzulashtirilgan tartibda tuzilgan paremiologik birliklar. Bunday adabiyotlarga nemis tilida quyidagi manbalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. “55 deutsche Redewendungen und Sprichwörter nach Themen” – Muallif: Gisela Darrah va “Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten” – Muallif: Lutz Röhrich. O‘zbek tilida esa “O‘zbek tilida ishlatiladigan zoonimik maqollar” – Muallif: M.A. Yarmatova va “O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug‘ati” – Mualliflar: Bekmurod Yo‘ldoshev va Dilbar O‘rinboyevlarning kitoblarini misol qilishimiz mumkin.

Bulardan tashqari yana 3-tur paremiologik birliklarga oid manbalar ham mavjudki, bunda asosan tayanch komponentlar atrofida to‘plangan paremiologik birliklarni kiritishimiz mumkin. Tilshunoslikda bunday adabiyotlar kam sonli uchraydi. Masalan “Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen” – Muallif: Harald Burger.

Nemischa va o‘zbekcha maqollarning taqqoslanishi. Maqollarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ularning semantik ma‘nosi va stilistik o‘ziga xosliklarini saqlanishi muhimdir. Quyida ayrim o‘zbekcha maqollarning nemis tilidagi mos variantlari taqdim etiladi:

1. “Eine Krähe hackt der anderen kein Auge aus.” [Bir qarg‘a boshqa qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.] [Schmidt, 2005].

“Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.”

2. “Eine Schwalbe macht noch keinen Sommer.” [Bitta qaldirg‘och bilan yoz bo‘lmaydi.] [Weber, 2012].

“Bir qaldirg‘och kelib bahor bo‘lmaydi.”

3. “Taten sagen mehr als Worte.” [Amallar so‘zlardan kuchli.] [Fischer, 2018].

“Tiling bilan emas, ishing bilan azizsan.”

4. “Ohne Fleiß kein Preis.” [Harakatsiz mukofot yo‘q.] [Becker, 2020].

“Mehnat qilsang, rohat topasan.”

5. “Wer viel erlebt hat, weiß viel.” [Ko‘p tajribaga ega bo‘lgan ko‘p narsani biladi.] [Müller, 2010].

“Ko‘pni ko‘rgan ko‘p biladi.”

Nemis va o‘zbek maqollari ko‘pincha bir xil hayotiy tajribalarni ifodalasa-da, ularning metaforalari, obrazlari va ishlatilish vaziyati ba‘zan farq qilishi mumkin. Bazida shunday

maqollar borki nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda obraz va komponentlarning yaqqol mosligini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek tilida “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi” iborasi, nemis tilidagi aynan shunday metafora bilan ifodalanadi. [Hoffman, 2016].

Demak, nemischa maqollar va matallarning o‘zbek tilidagi muqobil variantlarini o‘rganish ularning madaniy va til xususiyatlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda tarjima nafaqat so‘zma-so‘z, balki ma’no va mazmun jihatidan ham mos tushishi lozim. Ushbu maqolada bildirilgan fikr-mulohazalar va keltirilgan misollar nemis va o‘zbek tillaridagi paremiologik birliklar o‘rtasidagi muvofiqlikni chuqur o‘rganish imkonini beradi hamda tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida muhim tadqiqot obyekti sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yaxshiyev A.A. Nemis tilida og‘zaki nutq tizimida frazeologik birliklarning semantik - diskursiv maqomi mavzusidagi aftoreferat. – Samarqand: SamDCHTI, 2021. – 74 b.
2. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq paremalarining sinonimik lug‘ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 144 b.
3. Berdiyev X. va Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 248 b.
4. Yarmatova M.A. O‘zbek tilida ishlatiladigan zoonimik maqollar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 92 b.
5. Yo‘ldoshev B., O‘rinboeva D. O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 100 b.
6. Friedrich K. Wilhelm Wander. Deutsches Sprichwörter-Lexikon. - Leipzig, 1873. – 972 s.
7. Becker H. Sprichwörter im Deutschen. - Berlin: Springer, 2018. – 472 s.
8. Harald B. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen.-Verlag, 2015. - 241 s.
9. Röhrich L. Lexikon sprichwortlichen Redensarten. Der Taschenbuchausgabe Verlag Herder: Verlag, 1994. – 542 s.
10. Darrah G. 55 deutsche Redewendungen und Sprichwörter nach Themen.- Demand: Verlag, 2022. – 56 s.
11. Fischer M. Deutsche Redewendungen und ihre Bedeutungen. München: Duden, 2018. – 251 s.

12. Hoffman K. Sprache und Kultur in der Phraseologie. Leipzig: Lang Verlag, 2016. – 421 s.
13. Müller T., Volksweisheiten im interkulturellen Vergleich. Hamburg: Narr, 2010. – 324 s.
14. Schmidt B., Bedeutung und Herkunft deutscher Sprichwörter. Stuttgart: Klett, 2005. – 245 s.
15. Weber L., Vergleichende Phraseologie: Deutsch und andere Sprachen. Frankfurt: Metzler, 2012. – 325 s.